

BEMORLAR VA SHIFOKORLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hikmatov Akmal Sadulloyevich

Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligida kommunikativ qobiliyatlari ular faoliyat moslashuvchanligining asosiy omili sifatida namoyon bo‘lishi, muloqotdagi hamkorlik pozitsiyasini shakllanishi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: kasbiy kompetentlik, konstruktiv, motiv, sotsial-perseptiv kompetentlik, individuallik.

Kirish. XXI asr psixologiyasida shifokorlarning kasbiy kompetentligi muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy kompetentlik metodologiyasiga dahldor ba’zi bir psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ko‘pgina adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud. Dunyo va respublikamizdagi psixologik o‘quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jadalashmoqda. MDH olimlaridan B.G.Ananев, I.A.Zimnyaya, V.I.Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, F.F.Korolev, N.V.Kuzmina, V.V.Serikov, V.D.Shadrikov, Yu.G.Tatur, E.G.Yudin kabilar tomonidan kasbiy kompetentlik masala atroflicha tahlil qilingan. Shuni ta’kidlash kerakki, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta’riflashga yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so‘zining ma’nosи lotinchadan olingan bo‘lib, «sompeto» «erishayapman, munosibman» degan ma’nolarni anglatadi hamda malum tushuncha, tajriba va faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» atamasi faoliyatda mujassamlangan psixologning kompetentligi, biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masalada shaxsning amaliy

layoqatliligi hamda kasbiy qobiliyatning tizimli rivojlanganlik darajasini anglatadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar kompetentlikni faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlashgan. Shunday qilib, kompetentlik insonning yuksak xislatlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi zamonaviy ta’lim-tarbiyaning asosi hisoblanadi. Jumladan, Evropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni amaliy jihatlarini, ya’ni muhitga ta’sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, V.I.Lupandin), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi (O.O.Gonina, M.Kaplan, L.Nuguist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta’minotchisi (A.A.Blaginin, G.Birkhoff), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo‘llovchi (S.P.Destra, S.Dollinger) sifatida o‘rganishgan.

Tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini kasbiy faoliyatda rivojlanish bugungi kunda kasbiy vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shuningdek, “kompetentlik” fenomeni o‘z davrida faylasuflarning turli davrdagi izlanishlarida o‘z aksini topganligini kuzatish mumkin. Sharq mutaffakkirlari Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Navoiy o‘z asarlarida, insonlarni tushunish, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulqatvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustakovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini yuqori darajadagi axloqiy sifatlar deb ta’riflaganlar.

Tibbiyot xodimlari ziddiyatli vaziyatdan chiqishi uchun quyidagi qoidalarni hisobga olishi kerak.

1. Avvalambor tibbiyot xodimlari ziddiyatni bartaraf etishi kerak.
2. Xatti-harakati bilan sherigiga ta’sir qila olishi kerak. (bemorga, hamkasbiga).
3. Suhbatdoshining xatti-harkati, yuz bergen vaziyatni tushunmasdan turib, xulosa chiqarishga shoshilmasligi kerak.
4. Maqsadga kelishishi, ya’ni bemor bilan bog‘liqlikni iloji boricha avvalroq anglab olishi muhimdir.
5. Xulosa to‘g‘ri chiqarilganligiga hammani ishontira olishi lozim.

Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan unda psixologik qobiliyatni mavjudligiga, mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. M.M.Kabanov o‘z ilmiy izlanishlarida, tibbiyot xodimlari kommunikativ komponentligini muvaffaqiyati ularning nutq qobiliyatini rivojlanganligida deya ta’kidlaydi. Muloqotda nutq qoidalarini samarali egallanganligi, tibbiyot xodimlarini kompetentligini rivojlanishining muhim omili sifatida e’tirof etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Jabborov A.M. O‘zbek maktabi o‘qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari: Psixol. fan. dok.... dis. – Toshkent: 1999. – 317 b.
2. Ibodullayev Z.R. Asab va ruhiyat. 4-nashr. Ilmiy-ommabop risola. – T., 2019. – 352b
3. Петровская Л.А. Теоретические и методические проблемы социально-психологического тренинга. -М, 1982.
4. Петровская Л А. Компетентность в общении. Социально-психологический тренинг. М, 1989.
5. Петровская Л. А. Развитие компетентного общения как одно из направлений оказания психологической помощи. // Введение в практическую социальную психологию. Под ред. Жукова Ю.М, Петровской Л.А, Соловьевой О.В. -М, 1999. С. 150-166.
6. Петровский А.В. Психология: Учебник для студ. вузов. М, 2001. - 496с.